

MATNAZAR ABDULHAKIM IJODIDA TABIAT TASVIRI

To'xtajon Quryazova

Urganch davlat universiteti, O'zbek filologiyasi fakulteti

Amaliy filologiya 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada serqirra ijodkor, iste'dodli shoir, mohir tarjimon Matnazar Abdulhakimning tabiat haqidagi she'rlari tahlil qilinadi. Shoirning she'rlari avvalo, mavzu qamrovligi, shakl rangbarangligi va poetik ma'no hamda shoir nigohining o'ziga xosligi bilan tavsiflangan.

Kalit so'zlar: borliq, begona poshna, behi, saraton, maysa, mo'jiza

Matnazar Abdulhakim serqirra ijod sohibi – iste'dodli shoir, mohir tarjimondir. U izlanuvchan tadqiqotchi sifatida keng jamoatchilikka tanilgan va xalqning hurmatiga, e'tiboriga va e'zoziga musharraf bo'lgan. Shoir hayoti va ijodi bilan tanishib chiqar ekanmiz, turli xil mavzular (do'stlik, muhabbat, vatan, yaxshilik, yomonlik) haqidagi she'rlarini mutolaa qilar ekanmiz, shoir qalamining o'tkirligiga guvoh bo'lamiz. Shu o'rinda uning tabiat haqida ham bir qancha she'rlari bor. Masalan: “Sen, jonim mana shu bog`karnikisan”, “Fasllar qo`shig`i”, “Bir qutulsam, bir kelib olsam”, “Sog`inch”, “Shovullar osmonni yelpimoqchidek”, “Kelaman deb va`da berganding” kabi bir qator she'rlarida tabiat tasviri yetakchilik qiladi. Shoirning hozir “Yomg`ir” she`ridan keltirsak:

Yomg`ir yog`ar. Borliq qunishgan,

Bosliqadi yollarning changgi.

Yomg`ir yog`ar. She`r yozgim kelar,

Go`yo yomg`ir yangi, she`r yangi.

Bizning nazarimizda go`yo shoir yomg`ir yog`ayotganini kuzatgan. Va shu zahoti she`r yozishga chorlangan. Go`yo shoir uchun bu yomg`ir yangi endigina yog`a boshlagan va shu yozishga urinayotgan she`ri ham yap-yangiday. Shu o'rinda Dilmurod Quronov bu borada so'zlari “Adabiyotshunoslikka kirish”da “Ijtimoiy dard ijodkorning shaxsiy dardiga aylanmasa, ijodkor o`sha dardni chinakamiga qalbidan kechirmasa, biz aytgan “yalang`och ijtimoiylashuv” yuzaga keladi” deb aytib o`tgani o`rinlidir. Bu misralardan ko`rinib turibdiki, shoir borliqni tasvirlashga kirishib ketgan

Dilmurod Quronov.”Adabiyotshunoslikka kirish”

Iymanmas xech ochilmoqdan gul,

Maysa bo`lmas unmoqdan izza.

Takrorlanar xar gal shu yomg`ir,

Shu saodat, shu pok mo`jiza.

“Yomg`ir” she`ridagi satrlarda shoir qalamining naqadar o`tkirligini anglab olsak bo`ladi. Chunki yomg`irdan gul ochilishga uyalmaganini, maysalar o`sishdan izza bo`lmaganini mohirona ta`riflagan. Har safar yomg`ir yog`ayotganda aynan shu gulga va maysaga e`tibor berarkan shoir. Shu yomg`ir har safar yog`ganida unmaganda daraxtlar ham gullar ham unib chiqadi. Tabiatda har safar yomg`ir yog`ayotganda shunday mo`zijalar paydo bo`ladi degan shoir.

Gullar bilan yozilgan emish,
“Xush kelibsiz, Xorazmga” deb.
Har bir maysa, har bir barg nolon,
Yastanganmish diydor g`amin yeb.

Shoir yurtiga sog`inch ila qaytar ekan, kelgani bilanoq har bir maysa-yu, har bir barg e`tiborini tortadi. Ushbu satrlarda diydor shirin ekanligini va mehr va sahovatni tasvirlab o`tgan. Maysalar, barglar bamisli shoirni kutayotgandek, diydorga yetishish uchun nolon, yastanib yotganligini mohirona tasvirlagan shoir.

Men quyoshni sevaman jondan,
Porlab tursin deyman u doim.
Tong otadi har kuni tongda,
Ranjitmaydi meni Xudoyim.

Shoir bu she`rida oddiy, sodda so`zlardan foydalangan. Lekin she`ridagi ma`no olam-olam. Oy- muruvvat, Quyosh bu mehr. Shoir ham Quyoshni sevadi, uni har kun ko`rgisi keladi. Alloh shoirning quyoshini har kuni uning yoniga yuboradi.

Kelmading. Saraton taftidan
Yer-osmon orasi qaynaydi.
Begona poshnalar bu yo`lni
Qora saqich qilib chaynaydi.

Shoir she`rlarida o`xshatishlardan ham mahorat bilan foydalangan. Bu she`rda yozning jazirama chillasidan yeru-osmon o`rtasida issiq qaynashini, va begona odamlar bu yo`ldan o`tadi deyabdi. Saratonni yozning chila kunlariga, begona poshnalarni esa odamlarga qiyoslagan.

Sensiz butun dunyo bejizim,
Sensiz butun dunyo bexudam
Hamuqubat, hamdardim bilib,
Hol so`rayman har bir behidan.

Shoirning “Behi” nomli she`ridagi ushbu satrlarda yorisiz dunyo dunyo emasligi aytilgan. Va shoir o`ziga suyanchiq, dardkashi bilib nima uchun aynan behini tanlaydi? Professor U. Normatov aytganidek: “Inson va uning tabiati, qalbi

ruhiyati haqiqatni kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning, o`rnini bosa olmaydi “ Ushbu she`rida yori unga ikkita behi olib keladi. Shu mavsumda. So`ng kelasi yil shoir yana behini kutadi lekin behidan ham yoridan ham xabar kelmaydi. So`ng shu behizorlarga boradi. Shuncha behilarga yorining qo`li tegmaganligidan shoirning oyog`i ostiga yiqiladi. Va sovg`a qilgan ikkita behisi birisi quyoshga, birsi oyga aylanadi.

Matnazar Abdulhakim she`rlarini o`qir ekansiz, unda avvalo, mavzu qamrovligi, shakl rangbarangligi va poetik ma`no hamda shoir nigohining o`ziga xosligi bilan tavsiflangan. Ularning barchasiga xos mushtarak xususiyat esa voqelikka faol munosabat, undan chuqur hayotiy mazmun topish va uni go`zal, ta`sirchan ifodalashdir. “Olimning adabiyotshunos N.Jumaniyozova bilan hammualliflikda yozgan “Falsafiy teranlik poetik ohanglarda” nomli maqolasida Matnazar Abdulhakim ijodining mavzu jihatdan rang-baranglik kasb etib, mazmunan teranlashgani, falsafiy ruh bilan ziynatlangani haqida to`xtalib, 90-yillar shoir ijodida yangi bosqichning-yetuklik sari borishning boshlanishi bo`lganligi ta`kidlanadi.”

Foydalangan adabiyotlar:

1. Abdulhakim M. Tiniq tonglar.- Toshkent: Adabiyot va san`at.
 2. Abdulhakim M. Ko`prik.- Toshkent: Yangi asr avlodi. 2009
 3. Abdulhakim M. Fasllar qo`shig`i. 1986
- “O`zbek adabiyotshunosligining dolzarb muammolari” 2021